O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI QO‘RG‘ONTEPA TUMANI HOKIMINING QARORI

Qo‘rg‘ontepa tuman, Andijon ko‘chasi 1-uy, tel: 74-723-14-61 Korgontepa@andijan.uz

2024 - yil 2 - iyul 391-1-23-Q/24 Qo‘rg‘ontepa tumani hokimligi

Qo‘rg‘ontepa tumanidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llariga yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 10 apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y. 15-son, 197-modda; 2015 y. 52-son, 645-modda) Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi “Yo‘l xarakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y. 3-son, 23-modda; 2017 y. 36-son, 958-modda) qarori ijrosini ta’minlash, tuman hududida yangi qurib bitkazilgan “Eko bozor” ish faoliyati boshlanganligi munosabati bilan ushbu hududda transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, Qo‘rg‘ontepa tumani yo‘llardan foydalanish Davlat muassasasining 2024 yil 17 apreldagi 21-11-sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6-, 25-moddalarini qo‘llab

Q A R O R Q I L A M A N

1. Qo‘rg‘ontepa tumani yo‘llardan foydalanish Davlat muassasasining 2024 yil 17 apreldagi 21-11-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan:

- Qo‘rg‘ontepa tumani umumfoydalanuvdagi 4R-136 “Ko‘tarma-Qorasuv-Topolinov” avtomobil yo‘lining 19-20 km oralig‘ida 3.27 “To‘xtab turish taqiqilanadi” hamda 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarsi o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (Sh.Mamedov)ga mazkur belgilarni o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (N.Biloloxunov)ga ushbu hududlarda harakatlanuvchi transport vositalarini mazkur yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilishga hamda harakat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalar orqali e’lon qilingan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Maxmudov), “Qo‘rg‘ontepa haqiqati” gazetasi (N.Musaeva)lar mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda mahalliy matbuotda chop etish va uning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etiladi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Yuldashev zimmasiga yuklatilsin.

Qo'rg'ontepa tuman hokimi **A.Xalilov**